

LAQAB VA TAXALLUSLARNING LINGVISTIK TABIATI: ANTROPONIMIK TADQIQOTLARDA ULARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Obidova Azizaxon Davronboy qizi
FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada laqab va taxalluslarning lingvistik xususiyatlari, ularning antroponimik tizimdagi o‘rni va jamiyatdagi funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, ularning shakllanish sabablari, tasnifi va zamonaviy kommunikatsiyadagi, xususan, internetdagi roli tahlil qilingan. O‘zbek va rus tilshunosligidagi tadqiqotlar asosida bu birliklarning dolzarbligi asoslab berilgan.

Аннотация. В статье освещены лингвистические особенности прозвищ и псевдонимов, их место в антропонимической системе и социальные функции. Также проанализированы причины их формирования, классификация и роль в современной коммуникации, особенно в интернет-пространстве. Актуальность темы обоснована на основе исследований в узбекском и русском языкознании.

Abstract. The article explores the linguistic features of nicknames and pseudonyms, their role within the anthroponymic system, and their social functions. It also analyzes their formation, classification, and relevance in modern communication, particularly in online environments. The study highlights the importance of this topic based on research in Uzbek and Russian linguistics.

Til inson tafakkurining ifodasi, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida beqiyos ahamiyatga ega. Inson jamiyatining har qanday tarixiy bosqichida odamlar bir-birini nomlash zarurati tug‘ilgan. Shu bois nom berish jarayoni — nominatsiya, tilshunoslikda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Insonlar nomlash orqali bir-birini farqlaydi, muloqotda tanib oladi, va bu jarayonda antroponimlar — ya‘ni shaxs ismlari, familiyalar, laqab va taxalluslar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu jumladan, laqab va taxalluslar norasmiy bo‘lishiga qaramay, insonlararo muloqotda, ijtimoiy strukturalarda va madaniy qatlamlarda o‘ziga xos funksiyani bajaradi.

Ushbu maqolada laqab va taxalluslarning lingvistik mohiyati, ularning jamiyatdagi o‘rni, tasniflari, etimologiyasi va zamonaviy antroponimik tadqiqotlardagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Laqab — inson shaxsiyatining bir qismi sifatida, uning tashqi yoki ichki belgilariga qarab beriladigan norasmiy nomdir. Bu nomlar ko‘pincha xalq orasida hazil-mutoyiba, istehzo yoki ijobiy baholash orqali shakllanadi. V.K. Chichagov ta’kidlaganidek, laqablar

— inson hayotining turli davrlarida unga ma’lum bir xususiyat yoki sifat asosida beriladigan nomlar bo‘lib, ular odatda ma’lum, tor ijtimoiy doirada mashhur bo‘ladi.

Laqablar rasmiy hujjatlarda aks etmaydi, lekin ular tilning boyligini, xalqning mantiqiy tafakkurini va estetik dunyoqarashini ifodalaydi. Ular xalq og‘zaki ijodining mahsuli sifatida qadimdan mavjud bo‘lib, aksariyat hollarda familiya va ota ismi shakllanmasdan oldin shaxsni nomlashda asosiy vosita bo‘lgan.

Tadqiqotchilar laqablarni turli mezonlarga ko‘ra tasnif qilganlar. Masalan:

E.Begmatov o‘zbek laqablarini ma’no va motiviga ko‘ra 10 guruhga ajratgan, N.V. Podolskaya esa ularni maqtov, kamsituvchi, jamoaviy, maktab va jinsga oid laqablar kabi toifalarga ajratadi. A.A. Pashkevich ingliz tilidagi laqablarni etnik, maktab, siyosiy, oilaviy kabi guruhlarga ajratgan.

Laqablarning shakllanishi va qo‘llanishi tilshunoslik, etnografiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va tarix fanlarining kesishgan nuqtasida o‘rganiladi. Laqablar o‘z ichida erkanama, baholovchi, kinoyali, shaxsiy va guruhli xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, laqablar tor doiralarda (oilalar, jamoalar, maktab, internet) shakllanib, ko‘pincha subyektiv asosda qo‘yiladi. Bu ularning individual xarakterini va muloqotdagi ahamiyatini kuchaytiradi.

Taxallus — arabcha “xalos bo‘lish” ma’nosidan kelib chiqqan bo‘lib, shaxs tomonidan ataylab tanlangan, ko‘pincha ijodiy faoliyatda ishlatiladigan ism hisoblanadi. U ko‘proq yozuvchi, shoir va san’atkorlar tomonidan ishlatiladi. O‘zbek adabiyotida taxalluslar VII–VIII asrlardan boshlab mavjud bo‘lib, bu an’ana keyinchalik rus adabiyotiga XVIII asrlarda kirib kelgan.

Psevdonim esa yunoncha “soxta nom” degan ma’noni anglatib, shaxs tomonidan maxfiylik yoki o‘z obrazini o‘zgartirish uchun tanlanadi. Zamonaviy dunyoda, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda nikneymlar ko‘rinishida keng tarqalgan bo‘lib, ular psevdonimlarning yangi shakli sifatida qoraladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psevdonimlar va taxalluslar ko‘pincha shaxsning shaxsiy dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, jamiyatdagi mavqei yoki siyosiy pozitsiyasini aks ettiradi. Bu nomlar orqali insonlar o‘zlarini jamiyatga turlicha taqdim etishadi, bu esa ularning ijtimoiy identifikatsiyasida muhim omil hisoblanadi.

Rus tilshunosligida laqab va taxalluslar, til hodisasi bo‘lishdan tashqari, ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida ham o‘rganiladi. T.S. Astaxova, T.V. Shenknext, R.A. Musayeva kabi olimlar bu masalaga turlicha yondashgan. Ayniqsa, Chichagovning rus laqablarining tarixiy rivoji haqidagi tadqiqoti muhim manba hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida esa E.Begmatov, A.Ishayev, M.Rashidova, R.Sapayev, S.Rahimovlar laqab va taxalluslarning morfologik, semantik, etimologik xususiyatlarini o‘rganib, ularni motivatsiya asosida tasniflashgan. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Onomastik terminlar lug‘ati”da ham laqab va taxalluslarga oid tushunchalar izohlangan.

Alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilida laqab va taxalluslarning ko‘plab mintaqaviy, ijtimoiy va madaniy o‘ziga xosliklari mavjud bo‘lib, bu nomlar xalq ongida yashab kelmoqda.

Laqab va taxalluslar inson shaxsiyatini nomlashning norasmiy, ammo ijtimoiy-madaniy jihatdan ahamiyatli vositalaridir. Ular xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy munosabatlari, estetik qadriyatlari va til boyligining mahsulidir. Tilshunoslikda bu birliklarni chuqur tahlil qilish orqali nafaqat til taraqqiyotini, balki jamiyatning madaniy qatlamlarini ham tushunish mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda bu nomlar zamonaviy kommunikatsiya vositalari, global madaniyat va shaxsiy brending vositasi sifatida yanada ommalashmoqda. Ayniqsa, virtual muloqotda paydo bo‘lgan nikneymlar taxalluslarning yangi ko‘rinishi sifatida o‘rganishga loyiqdir.

Shu bois, laqab va taxalluslarni tilshunoslik bilan birga tarix, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va psixologiya fanlari doirasida o‘rganish, ularning tasnifi va funktsional tahlilini chuqurlashtirish hozirgi davr tadqiqotlari uchun dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov, E. O‘zbek antroponimikasi (ism, familiya, laqab va taxalluslar). Toshkent: Fan, 2005. pp. 12–14, 18–22.
2. Подольская Н.В Словарь русской ономастической терминологии М:Наука, 1988.-С.96
3. Чичагов, В. К. Из истории русских имен, отчеств и фамилий / В. К. Чичагов. - М.: Учпедгиз, 1959. - 130 с
4. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного—М.:Наука 1973.-С.360.
5. Топоров, В.Н. Исследования по этимологии и семантике: Теория и некоторые частные ее приложения / В.Н. Топоров. — М.: Языки славянской культуры, 1995 - 816 с.
6. Пашкевич А.А Прозвища и клички в системе номинативных средства английского языка -кандидата филологических наук...дисс. -Санкт-Петербург,2006.-162 Б
8. Rahimov, S. Xorazm shevalarida antroponimik birliklar. Urganch: Xorazm universiteti, 2008. pp. 27–30.
9. Shayxov, A. O‘zbek ismlari lug‘ati. Toshkent: Sharq, 1996. pp. 19–20.
10. Franklin, J. Dictionary of Nicknames. New York: Harper & Row, 1962. pp. 13–15.